



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY MAJLISI QONUNCHILIK PALATASI



12-avgust
2026

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi

“MAMLAKATIMIZDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PARLAMENTNING ROLI”

Respublika ilmiy-amaliy konferensiya





IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 258 sahifa.
2026-yil, avgust*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.

KIRISH

EKOLOGIK QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH VA “YASHIL” TARAQQIYOT BORASIDAGI PARLAMENT NAZORATI



Xamzayev Abdushukur Xudoykulovich
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasidagi
O‘zbekiston ekologik partiyasi fraksiyasining rahbari

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xonimlar va janoblar!

Jahonda kechayotgan iqlim o‘zgarishi, biologik xilma-xillikning qisqarishi, suv resurslari tanqisligi, yerlarning degradatsiyasi va atrof-muhit ifloslanishi kabi ekologik tahdidlar barcha davlatlar oldida umumiy vazifalarni qo‘ymoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda barqaror rivojlanishning huquqiy asoslarini mustahkamlashni davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilashni taqozo etmoqda.

“Yashil” taraqqiyotni ta‘minlash zamon talablariga javob beradigan qonunchilik bazasini shakllantirish, uni muntazam takomillashtirib borish hamda qabul qilingan qonunlar ijrosi ustidan samarali parlament nazoratini ta‘minlash bilan chambarchas bog‘liqdir.

Muhim ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo‘lgan ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishga qaratilgan ekologik qonunchilik samaradorligini oshirish muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” iqtisodiyot tamoyillarini hayotga keng joriy etishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Mazkur islohotlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash hamda ularning ijrosini ta‘minlashda parlamentning o‘rni va mas‘uliyati tobora ortib bormoqda.

Ekologik xavfsizlikni ta‘minlash va “yashil” taraqqiyotga erishish har qanday davlatning puxta o‘ylangan huquqiy siyosatiga bevosita bog‘liqdir. Shu nuqtai nazardan, so‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda ekologik sohadagi qonunchilikni xalqaro standartlar asosida takomillashtirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Eng avvalo, 2023-yilda xalqimizning xohish-istaklari asosida qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi muqaddimasidagi «mamlakatimizning bebaho tabiiy boyliklarini ko‘paytirishga, hozirgi va kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga hamda atrof-muhit musaffoligini saqlashga astoydil ahd qilib...» degan jumlar ham bu borada mamlakatimiz o‘zining aniq va mustahkam pozitsiyasiga ega ekanini anglatadi. Bundan tashqari, Bosh Qomusimizda ijtimoiy, iqtisodiy huquqlar qatori «ekologik huquq» tushunchasi kiritildi.

Xususan, fuqarolarning qulay atrof-muhitga bo‘lgan huquqi, tabiiy boyliklarni asrab-avaylash hamda kelgusi avlodlar manfaatlarini ta‘minlash davlatning ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilandi.

Keyingi yillarda o‘rmonlardan foydalanish, yaylovlarni muhofaza qilish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirish, ekologik audit, gidrometeorologiya, organik mahsulotlar ishlab chiqarish, ichimlik suvi ta‘minoti hamda suv resurslarini boshqarish sohalarida qabul qilingan qonunlar mazkur yo‘nalishda yaxlit huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ekologik qonunchilikni takomillashtirishda quyidagi yo‘nalishlar ustuvorlik kasb etdi:

- birinchidan**, atrof tabiiy muhitni muhofaza qilish va ekologik xavfsizlikni ta‘minlash;
- ikkinchidan**, iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish va oldini olish, “yashil” iqtisodiyotni rivojlantirish;
- uchinchidan**, yerdan foydalanish va muhofaza qilish;
- to‘rtinchidan**, yer osti boyliklaridan foydalanish va muhofaza qilish;
- beshinchidan**, suvdan foydalanish va muhofaza qilish;
- oltinchidan**, o‘simlik dunyosidan foydalanish va muhofaza qilish;
- yettinchidan**, hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish;
- sakkizinchidan**, atmosfera havosini muhofaza qilish qonunchiligi;
- to‘qqizinchidan**, gidrometeorologiya sohasi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

2016–2025-yillarning o'zida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida 30 ga yaqin qonun qabul qilinib, ular ekologik munosabatlarni huquqiy tartibga solishning zamonaviy tizimini yaratish uchun poydevor bo'ldi.

Jumladan, "Hayvonot dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida", "Qayta tiklanuvchi energiya manbalari to'g'risida", "Ekologik audit to'g'risida", "Gidrometeorologiya faoliyati to'g'risida", "Organik mahsulotlar to'g'risida", "Tuproqni muhofaza qilish va uning unumdorligini oshirish to'g'risida", "Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta'sirni baholash va strategik ekologik baholash to'g'risida", "Issiqxona gazlarining chiqarilishini cheklash to'g'risida"gi yaxlit va yangi tahrirdagi qonunlar hamda Suv kodeksining qabul qilinishi mamlakatimizda ekologik siyosatning huquqiy asoslarini yangi bosqichga olib chiqdi.

Mazkur qonunlar nafaqat tabiiy resurslarni muhofaza qilishning huquqiy mexanizmlarini takomillashtirdi, balki iqlim o'zgarishiga moslashish, "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish, biologik xilma-xillikni asrash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining huquqiy poydevorini mustahkamladi.

Bugungi kunda ekologik qonunchilikning asosiy vazifasi faqat tabiatni muhofaza qilish bilan cheklanmaydi. U investitsiya siyosatini shakllantirish, resurslardan samarali foydalanish, "yashil" texnologiyalarni rag'batlantirish, iqlim o'zgarishi oqibatlariga moslashish hamda aholining munosib hayot sifatini ta'minlashning muhim huquqiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatimiz xalqaro huquqning teng huquqli subyekti sifatida bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shildi.

Xususan:

Qonunchilik palatasi majlislarida hukumat a'zolarining Qonunchilik palatasi deputatlari savollariga javoblarini eshitish — "Hukumat soati";

davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyati masalalari yuzasidan axborotini eshitish;

Qonunchilik palatasi tomonidan davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi masalalari yuzasidan parlament so'rovi yuborish;

Qonunchilik palatasining tegishli qo'mitasi tomonidan davlat organlari rahbarlarining axborotini eshitish;

qonun hujjatlarining ijrosi holatini va huquqni qo'llash amaliyotini tegishli qo'mita tomonidan o'rganish hamda qonunosti hujjatlarining qabul qilinishi yuzasidan monitoringni amalga oshirish;

deputatlik so'rovlari yuborish va boshqa shakllarda amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi va uning deputatlari ham mazkur jarayonlarda faol ishtirok etmoqda.

2025-yil davomida Ekologik partiya fraksiyasi tashabbusi bilan ekologik masalalar yuzasidan 2 marotaba hukumat a'zolarining axboroti eshitildi va davlat organlarining mansabdor shaxslariga 3 marotaba parlament so'rovi yuborildi.

Shu bilan birga, fraksiya yig'ilishlarida sohadagi qonunlar va davlat dasturlarining ijrosi yuzasidan 13 marotaba tegishli mansabdor shaxslarning axborotlari eshitildi.

Hurmatli anjuman ishtirokchilari!

Fraksiyamiz Qonunchilik palatasi deputatlari bilan hamkorlikda kelgusida ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi qonunlarni tizimlashtirish, qonunlarda huquqiy tartibga solish mexanizmlarini aniq belgilashga qaratilgan qonun loyihalari ustida ish olib bormoqda.

Jumladan:

ekologik qonunchilikni tizimlashtirish va kodifikatsiyalashga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya kodeksini maromiga yetkazish;

"Hayvonlarni shafqatsiz munosabatdan himoya qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini;

"Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasini yangi tahrirda;

"Atrof-muhit monitoringi to'g'risida"gi yangi qonun loyihasini ishlab chiqish oldimizda turgan ustuvor vazifalar hisoblanadi.

Hurmatli konferensiya ishtirokchilari!

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki, Yangi O'zbekistonda ekologik qonunchilikni takomillashtirish va "yashil" taraqqiyotni ta'minlash jarayonida parlament nafaqat qonun qabul qiluvchi oliy vakillik organi, balki qabul qilingan qonunlarning hayotga to'liq va samarali tatbiq etilishi ustidan ta'sirchan nazoratni amalga oshiruvchi muhim konstitutsiyaviy institut sifatida ham alohida o'rin tutadi.

Ishonchim komilki, mazkur xalqaro konferensiya doirasida bildiriladigan ilmiy yondashuvlar, amaliy takliflar va ilg'or tajribalar ekologik qonunchilikni yanada takomillashtirish, o'zaro tajriba almashish hamda barqaror va "yashil" taraqqiyot maqsadlariga erishish yo'lida muhim muvaffaqiyat maydoni bo'lib xizmat qiladi.

E'tiboringiz uchun rahmat!



MUNDARIJA

AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA EKOLOGIK TA'LIM, JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA SHAXSIY JAVOBGARLIK: 2025–2026-YILLARDAGI INSTITUTSIONAL O'ZGARISHLAR TAHLILI.....	16
Sharipov Kongratbay Avezimbetovich	
BMTNING BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARINI MILLIY DARAJADA AMALGA OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA USTUVOR YO'NALISHLAR.....	24
Teshaboyev To'liqin Zakirovich	
YASHIL IQTISODIYOTNI IQTISODIY VA HUQUQIY QO'LLAB-QUVVATLASH, INSTITUTSIONAL MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI.....	31
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
TAKOMILLASHTIRISH: YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLAR VA O'ZBEKISTON TAJRIBASI	37
Shamsiddin Allayarov	
EKOLOGIYA SOHASIDAGI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	45
S. Sh. Utemuratova	
EKOLOGIK BARQARORLIK — YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUSTAHKAM POYDEVORI.....	49
G'afforov X. L.	
MENEJMENT VA BIZNES BOSHQARUVIDA EKOLOGIK, YONDASHUV, ESG TAMOIYILLARI, “YASHIL” STRATEGIYA VA KORPORATIV BOSHQARUV MEXANIZMLARI	58
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich	
РОЛЬ ГРУППЫ ДЕПУТАТОВ ЭКОЛОГИЧЕСКОГО ДВИЖЕНИЯ УЗБЕКИСТАНА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ УСТОЙЧИВОСТИ	65
Алиханов Борий Батирович Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
YASHIL ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISH HAMDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA YASHIL PARTIYALARNING GLOBAL AHAMIYATI.....	69
Qo'chqorov Islomjon Nurali o'g'li Xursanov Kamoljon Erkinjon o'g'li	
RESPUBLIKAMIZDA EKOLOGIK SIYOSAT VA XAVFSIZLIK MASALALARI.....	73
Raximov Oybek Raimovich Xofizov Baxriddin Turdievich	
AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISHDA JAMOATCHILIK ISHTIROKI VA TA'LIM IMKONIYATLARI (STEAM YONDASHUVI MISOLIDA).....	76
N. Matkarimova	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR PARLAMENTINI MUHIM DEMOKRATIK INSTITUT SIFATIDA SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI VA ISTIQBOLDAGI REJALAR.....	80
Abdullayev Muxammadqodir Mashxur o'g'li Xushvaqtov Feruzbek Ilxom o'g'li	
СОТРУДНИЧЕСТВО ПАРЛАМЕНТА УЗБЕКИСТАНА С ННО В ПОВЫШЕНИИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ	83
Сангинов Саидрасул Сайдакпарович	
OROLBO'YI MINTAQASIDA «SUV IQTISODIYOTI» VA «YASHIL OBLIGATSIYALAR» (GREEN BONDS) TIZIMINI YANADA RIVOJLANTIRISHDA PARLAMENT NAZORATI VA QONUNCHILIK MEXANIZMLARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA).....	87
Otamuratov Oybek Baxtiyorovich	



INKLYUZIV YONDASHUV ASOSIDA EKOLOGIK TARBIYANI TASHKIL ETISHNING IJTIMOY PEDAGOGIK IMKONIYATLARI	93
Xodjayeva Mohira Mirzahmadovna	
KORXONALARNING BARQAROR RIVOJLANISH TIZIMIDA EKOLOGIK VA IJTIMOY KO'RSATKICHLAR AUDITI.....	97
Akbarov Azizbek Abdusattarovich	
O'ZBEKISTONDA XALQARO BIZNESNING BARQAROR RIVOJINI TA'MINLASHDA MARKETING VA YASHIL INNOVATSIYALARNING ROLI VA AHAMIYATI.....	103
Sayfullayeva Nigora Fayzulla qizi	
TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)	107
Alimardonova Z. M.	



TOZA HUDUDDAN YASHIL TAFAKKURGA — EKOLOGIK ISLOHOTLARNING AMALIY NATIJALARI (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA)

Alimardonova Z. M.

iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),
Demokratik jarayonlarni tahlil qilish markazi
Surxondaryo viloyati hududiy bo'linmasi rahbari

Annotatsiya. Mazkur tezisda Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ekologik islohotlarning amaliy natijalari, ularning huquqiy asoslari, statistik ko'rsatkichlari hamda ijtimoiy-ekologik samaradorligi tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: ekologik islohotlar, "Toza hudud", "Toza havo", "Yashil makon", "Bio meros", "Eko-madaniyat", chiqindilarni boshqarish, ekologik monitoring, yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish.

Abstract. This thesis analyzes the practical outcomes of environmental reforms implemented in the Surkhondaryo Region, their legal foundations, statistical indicators, and socio-environmental effectiveness.

Keywords: environmental reforms, "Clean Area", "Clean Air", "Green Space", "Bioheritage", "Eco-culture", waste management, environmental monitoring, green economy, sustainable development.

Аннотация. В тезисе проанализированы практические результаты экологических реформ, реализуемых в Сурхандарьинской области, их правовые основы, статистические показатели и социально-экологическая эффективность.

Ключевые слова: экологические реформы, «Чистая территория», «Чистый воздух», «Зелёное пространство», «Бионаследие», «Экокультура», управление отходами, экологический мониторинг, зелёная экономика, устойчивое развитие.

KIRISH

Bugun dunyo iqlim o'zgarishi, cho'llanish, havo ifloslanishi va chiqindilar muammosi kabi global ekologik tahdidlarga duch kelmoqda. Shu sharoitda ekologik xavfsizlikni ta'minlash har bir davlat taraqqiyotining muhim omiliga aylandi. O'zbekistonda ham so'nggi yillarda ekologiya sohasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilanib, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish va aholining ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev xalqaro minbarlarda Orol dengizi fojiasi oqibatlarini yumshatish, Markaziy Osiyoda ekologik hamkorlikni kuchaytirish, yashil iqtisodiyotga o'tish va iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda. Ushbu g'oyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son "«Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida»gi Farmoni bilan tasdiqlangan davlat dasturining ekologik yo'nalishlarida o'zining amaliy ifodasini topmoqda [1].


Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PF-46-son "Atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan «Toza havo» umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi Farmoni [2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PF-47-son ««Yashil makon» umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni [3] hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PQ-110-son ««Eko-madaniyat» umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori [4] ekologik boshqaruvning yangi modelini shakllantirish, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologik ta'limni rivojlantirish hamda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan ekologik islohotlar zamonaviy ekologik boshqaruv tamoyillarining amaliyotdagi ifodasi hisoblanadi. Ushbu jarayonlar doirasida ekologik siyosat an'anaviy



yondashuvlardan farqli ravishda chiqindilarni boshqarish, ularni saralash va qayta ishlash, havo sifatini monitoring qilish, raqamli nazorat mexanizmlarini joriy etish hamda bioxilma-xillikni muhofaza qilishga yo'naltirilgan kompleks tizim sifatida shakllanmoqda.

Chiqindsiz hudud konsepsiyasi esa resurslardan oqilona foydalanish, ekologik xavflarni kamaytirish va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim strategik yo'nalishiga aylanmoqda.



1-rasm. Surxondaryo viloyatida ekologik islohotlarning
2026-yildagi asosiy amaliy natijalari¹

Viloyatda sanitariya xizmatlarini davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etish sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, raqobat muhitini shakllantirish va xizmatlar sifatini yaxshilashga qaratilgan muhim islohotlardan biri hisoblanadi. Sanitar xizmatlar qamrovining mahallalar kesimida 81 foizga, aholi soniga nisbatan esa 65 foizga yetgani hududda chiqindilarni boshqarish tizimi bosqichma-bosqich takomillashayotganini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, maishiy va qurilish chiqindilarini belgilangan poligonlarga joylashtirish hamda chiqindi hududlarida rekultivatsiya ishlarini amalga oshirish ekologik xavflarni kamaytirish va buzilgan yer resurslarini qayta tiklashga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlarni ifodalaydi. Mazkur yondashuv chiqindilarni faqat to'plash va saqlash emas, balki ularni ekologik xavfsiz boshqarish va hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlashga xizmat qilmoqda.

Surxondaryo viloyatida amalga oshirilayotgan istiqbolli ekologik loyihalar orasida Angor tumanidagi 150 million AQSh dollarlik xorijiy investitsiya loyihasi muhim amaliy ahamiyatga ega. Qattiq maishiy chiqindilarni termik qayta ishlash asosida 35 megavatt elektr energiyasi ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi mazkur tashabbus chiqindilarni ikkilamchi resurs sifatida samarali boshqarish va aylanma iqtisodiyot tamoyillarini amaliyotga tatbiq etishning muhim namunasidir.

Shuningdek, atmosfera havosi sifatini yaxshilash va aholi salomatligiga ta'sir etuvchi ekologik omillarni kamaytirish maqsadida sanoat korxonalarida zamonaviy tozalash texnologiyalarini joriy etish ustuvor vazifaga aylanmoqda. Viloyatda sanoat obyektlarida chang-gaz tozalash uskunalarining o'rnatilishi va modernizatsiya

¹ Manba: Surxondaryo viloyati ekologiya sohasiga oid rasmiy ma'lumotlar asosida muallif tomonidan tuzilgan.



qilinishi ishlab chiqarish jarayonlarini ekologik talablar asosida takomillashtirish, atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalar miqdorini kamaytirish hamda yashil texnologiyalarga o'tish jarayonini ifodalaydi.

Atmosfera havosi sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish doirasida PF-46-son Farmonda belgilangan avtomatik monitoring talablarini joriy etish ekologik boshqaruvning muhim yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda [2]. Mazkur talablar asosida birinchi va ikkinchi toifaga kiruvchi 22 ta sanoat korxonasida fon monitoring stansiyalari, 1 ta korxonada esa avtomatik monitoring tizimi o'rnatildi. Shuningdek, yana 93 ta korxona tomonidan monitoring tizimlarini joriy etish bo'yicha shartnomalar tuzilgani atmosfera havosini raqamli kuzatish va ekologik nazoratning yagona tizimini shakllantirish jarayoni izchil davom etayotganini tasdiqlaydi.

PF-46-son Farmonda nazarda tutilgan "Toza havo" umummilliy loyihasi doirasida 16 mingdan ortiq avtotransport vositasining ekologik ko'rikdan o'tkazilishi havo ifloslanishi manbalarini aniqlash va ularni kamaytirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlarning muhim qismi hisoblanadi [2]. O'tkazilgan nazorat ishlari natijasida belgilangan ekologik me'yorlardan ortiq chiqindi chiqarayotgan 124 ta transport vositasining aniqlangani avtotransport sohasida ekologik talablarga rioya etilishini kuchaytirish zarurligini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, PF-46-son Farmonga muvofiq, 2026-yil 1-maydan boshlab har oyning 10 va 25-sanalarida "Avtomobilsiz kun" va "Avtomobilsiz hafta" aksiyalarini o'tkazish belgilangan [2]. Mazkur aksiyalarning yo'lga qo'yilishi aholining ekologik ongini oshirish, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish va havo sifatini yaxshilashga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar tizimida muhim o'rin egallamoqda. Ushbu tashabbuslar ekologik nazoratning faqat texnik vositalarga emas, balki aholi ishtirokini ta'minlashga asoslangan kompleks yondashuv asosida rivojlanayotganidan dalolat beradi.

PF-47-son Farmon bilan samaradorligi yanada oshirilayotgan "Yashil makon" umummilliy loyihasi [3] ekologik islohotlarning eng keng qamrovli yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Viloyatda bahorgi mavsumda 6,4 million tup daraxt va buta ko'chatlari ekilib, reja 107 foizga bajarildi. Bu nafaqat son jihatidan, balki ekologik muhitni yaxshilash nuqtayi nazaridan ham muhim natijadir.

Angor tumanida 287,8 gektar maydonda barpo etilgan yashil belbog'ga 721 ming tup ko'chat ekilib, to'liq sug'orish tizimi yaratilgani yashil hududlarni barpo etishda parvarish va ekspluatatsiya jarayonlarining ahamiyati ortib borayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Qoraqir massivida 250 ming tup daraxt ekish va Qattaqum hududida 500 gektar cho'l maydoniga saksovul urug'larini sepish ishlari iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatish, yer degradatsiyasi va cho'llanish jarayonlarini cheklashga qaratilgan ilmiy asoslangan ekologik chora-tadbirlardan biri hisoblanadi.

Mazkur loyihalar hududiy ekotizimlarni tiklash, tabiiy resurslar barqarorligini ta'minlash va ekologik xavflarni kamaytirish orqali atrof-muhit muhofazasida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, Termiz tumani Yangiobod mahallasida tashkil etilayotgan yashil belbog'da zamonaviy sug'orish infratuzilmasining barpo etilishi ekologik loyihalarning sifat bosqichiga o'tganini ko'rsatadi. Bu esa endi asosiy e'tibor ko'chat ekishga emas, balki ularning yashovchanligi va uzoq muddatli samaradorligiga qaratilayotganini anglatmoqda.

Yashil hududlarni kengaytirish va aholining ekologik tashabbuslardagi ishtirokini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi 156-son "Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan «Mening bog'im» loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori asosida amalga oshirilayotgan "Mening bog'im" loyihasi ekologik boshqaruvda jamoatchilik ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan yangi mexanizm sifatida shakllanmoqda [5]. Mazkur loyiha orqali yashil hududlarni barpo etish jarayonida fuqarolarning taklif va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, ekologik loyihalarni hudud ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda amalga oshirish imkoniyati yaratilmoqda.

Xususan, 156-son qarorda nazarda tutilgan "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni tashkil etish mexanizmi [5] asosida "Ochiq budjet" tizimi orqali saralangan 15 ta loyiha amalga oshirilmoqda. Mazkur amaliyot ekologik sohada qaror qabul qilish jarayonlariga jamoatchilikni jalb etish samaradorligini oshirmoqda. Bu esa yashil infratuzilmani rivojlantirishda aholi ishtirokini ta'minlash va ekologik mas'uliyatni shakllantirishning muhim omili hisoblanadi.

Shuningdek, PF-47-son Farmonning 1-ilovasiga muvofiq, Sherobod tumanida 38 gektar maydonda dendrologiya bog'i hamda 61,6 gektar maydonda botanika bog'i tashkil etish uchun jami 99,6 gektar yer maydoni ajratilgan [3]. Mazkur bog'larning tashkil etilishi ekologik ilmiy salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan strategik qadamlardan biri hisoblanadi. Ushbu hududlar o'simliklarni o'rganish, ularning genetik resurslarini saqlash, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda ekologik turizm yo'nalishlarini shakllantirishda yangi imkoniyatlar yaratadi.

Biomerosni muhofaza qilish sohasida ham yangi yondashuv shakllanmoqda. LICENSE.UZ elektron tizimi orqali kelib tushgan murojaatlarning katta qismiga daraxtlarni kesish bo'yicha rad javobi berilgani tabiatni muhofaza qilish tamoyilining ustuvorligini namoyon etmoqda. Shu bilan birga, 147 mingdan ortiq ko'p yillik daraxtlarning elektron reyestri shakllantirilgani mamlakatda yashil fondni raqamlashtirish jarayoni jadallashayotganidan dalolat beradi.



Ekologik islohotlarning muhim yo'nalishlaridan biri aholining ekologik madaniyatini oshirish va sohada malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, PQ-110-son qarorning 1-ilovasiga muvofiq, Sherobod tumani 3-son texnikumi negizida Surxondaryo viloyati "yashil" texnikumini tashkil etish belgilangan [4]. Mazkur texnikum ekologik sohada zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarga ega mutaxassislar tayyorlashning yangi institutsional asosini yaratadi. Shu bilan birga, maktablar, mahallalar, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik ishtirokida amalga oshirilayotgan targ'ibot ishlari aholining ekologik ongini shakllantirish va tabiatga mas'uliyatli munosabatni qaror toptirishga xizmat qilmoqda.

"Daraxtga nafas bering!" aksiyasi doirasida daraxtlarni reklama konstruksiyalaridan tozalash va betonlangan ildiz qismlarini ochish ishlarining amalga oshirilishi yashil hududlarni muhofaza qilishga nisbatan yangi yondashuv shakllanayotganini ko'rsatadi. Mazkur tadbirlar daraxtlarni saqlash nafaqat huquqiy talablar, balki jamiyatning ekologik mas'uliyati va tabiatga bo'lgan munosabatining muhim ko'rsatkichi ekanini namoyon etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, avvalgi yillarda ekologik siyosat asosan alohida tadbirlar ko'rinishida amalga oshirilgan bo'lsa, bugungi bosqichda huquqiy islohotlar, raqamli texnologiyalar, investitsiyalar, ilmiy yondashuv va jamoatchilik ishtirokini birlashtirgan yaxlit tizim shakllanmoqda. Bu esa ekologik xavfsizlikni ta'minlashda ekologik boshqaruvning tizimli rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Surxondaryo viloyati misolida ko'rish mumkinki, "Toza hudud"dan boshlangan islohotlar asta-sekin yashil tafakkurga aylanmoqda. Chiqindilarni qayta ishlash, havo monitoringi, yashil belbog'lar, bioxilma-xillikni muhofaza qilish, ekologik ta'lim va raqamli nazorat kabi choralar bir butun ekologik tizimni shakllantirmoqda.

Umuman olganda, ekologik islohotlarni amalga oshirish davlat organlari bilan bir qatorda fuqarolar, tadbirkorlik subyektlari, ilmiy doiralar va jamoatchilik institutlarining hamkorligini talab etadi. Mazkur yondashuv O'zbekistonning barqaror taraqqiyotini ta'minlash va kelajak avlodlar uchun sog'lom ekologik muhit yaratishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son "«Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish» yilida ustuvor yo'nalishlar bo'yicha islohotlar dasturlari va «O'zbekiston — 2030» strategiyasini amalga oshirish bo'yicha davlat dasturi to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/8050787> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PF-46-son "Atmosfera havosi sifatini yaxshilashga qaratilgan «Toza havo» umummilliy loyihasini amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/8101201> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PF-47-son "«Yashil makon» umummilliy loyihasi samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8101199> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 25-martdagi PQ-110-son "«Eko-madaniyat» umummilliy loyihasi doirasida ekologik ta'lim, ilm-fan va targ'ibotni jadallashtirishga oid kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-8100110> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-martdagi 156-son "Jamoatchilik fikri asosida ishlab chiqilgan «Mening bog'im» loyihalarini shakllantirish va moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qarori [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6860237> (murojaat sanasi: 04.08.2026).
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi PF-217-son "Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni [Elektron resurs] // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – URL: <https://lex.uz/docs/-7847353> (murojaat sanasi: 04.08.2026).



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Maqsudov Hasan

2026. № 4-maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

